



AIFU



BADIIY TARJIMADA ARXAIZMLAR REPREZENTATSIYASI

Valida Quvondiq qizi Madiyorova
tayanch doktorant
O'zbekiston Milliy Universiteti
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: validamadiyorova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada arxaizmlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar, shuningdek, arxaik leksikani tarjimadagi reprezentatsiyasini ta'minlash masalalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: arxaizm, arxaizatsiya, modernizatsiya, neytralizatsiya

Abstract: This article discusses the problems that arise in the translation of archaisms, as well as the issues of ensuring the representation of the archaic lexicon in translation.

66

Key words: archaism, archaization, modernization, neutralization

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы, возникающие при переводе архаизмов, а также вопросы обеспечения репрезентации архаической лексики в переводе.

Ключевые слова: архаизм, архаизация, модернизация, нейтрализация.

Tarjima murakkab jarayon bo'lib, u ikki til va madaniyatning kesishgan chorahasida bunyod bo'ladi, ana shu maydonda bir til vositasida aslyat tiliga xos madaniyat qayta tiklanadi, har ikkala madaniyatdagi o'zaro o'xshash va farqli xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Biroq aynan til va madaniyatning ana shunday chambarchasligi tarjima jarayonida ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Ba'zi matnlar metafora, iboralar, maqollar, diniy atamalar, ijtimoiy terminlar, tarixiy-arxaik tushunchalar kabi birliklarni o'z ichiga oladi bularni tarjimada ifodalash esa tarjimondan mehnat va sa'y-harakat talab qiladi.

So'nggi yillarda o'zbek tilidagi arxaik matnlarni tarjima qilish muammolariga qaratilgan bir qator ilmiy ishlar, asosan, ikki yo'nalishda amalga oshirilgan bo'lib, birinchi yo'nalishni tarixiy-arxaik leksikaning, tarixiylikning hamda tarixiy koloritning tarjimada aks etishi masalalariga bag'ishlangan ishlar tashkil qilsa [1, 2, 3], ikkinchi yo'nalishga mansub ilmiy ishlar muayyan bir tarixiy asarlar tarjimasiga qaratilgan tadqiqotlardir [4, 5, 6, 7].

Tarixiy matnlar tarjimasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda arxaizmlarni tarjima qilish strategiyasini ishlab chiqishda muhim omil vazifasini bajaradigan ikki xususiyat aniqlangan: matn vaqt o'tishi bilan eskirganmi yoki o'quvchi uni arxaik

ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

deb idrok etish uchun yaratilganmi? [8] Shunga ko'ra, S.Vlaxov va S.Florinning ta'kidlashicha, tarjimon ikki asosiy manbaga oid asarlarni tarjima qilish jarayonida tarixiy-arxaik leksikaga duch keladi:

- a) tarixda yashab o'tgan ijodkorlarning asarlarida;
- b) tarixiy asarlar yozuvchi zamonaviy ijodkorlarning asarlarida [9].

Modomiki, tarixiy matnning tili va manbayi tarjima jarayoniga juda katta ta'sir ko'rsatar ekan, unda bu toifaga mansub asarlarning tarjima qilish strategiyalari turlicha bo'lishi tabiiydir.

Birinchi holatda, matnning tili va unda tasvirlangan dunyo shu matn yaratilgan davrdagi o'quvchilar uchun zamonaviy hisoblangan, biroq hozirgi kunga kelib eskirgan va shu sababli, uning ma'nosini tushinish va anglash o'quvchidan qo'shimcha bilim talab qiladi. Masalan, Alisher Navoiyning «Xamsa»si, yoki Boburning «Boburnoma»si o'z davri o'quvchilari uchun zamonaviy tilda yozilgan bo'lgan, lekin oradan asrlar o'tishi bilan ularning tili eskirgan.

Ikkinchi holatda esa, matnda tasvirlanayotgan dunyo tarixiy ko'rinishga ega bo'lishi uchun, muallif uni ataylab tarixiy tilda yozadi. Masalan, Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo", Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", Abdulla Oripovning "Sohibqiron" kabi asarlar tili zamondosh o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, ulardagi tarixiy-arxaik leksikaning o'z vazifasi mavjud. Zamonaviy adib va yozuvchilar tarixiy asar yozar ekan, tarixiy-arxaik leksikani biror-bir maqsadni ko'zlab ishlatishi tabiiy holdir, xususan, tarixiy-arxaik leksika, asarga tarixiy koloritini berishda, kinoya, yumor, satirani yuzaga chiqarishda, milliy-madaniy belgi vazifasini bajarishda, poeziyada esa qofiya va ritmning muqobil shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Tarjimashunoslikka qaratilgan ko'pchilik tadqiqotlarda tarjima jarayonining uch bosqichli ekanligi (asliyat matnini idrok qilish, uning tarjima tilidagi ekvivalentini topish, asliyat va tarjima matning mosligini tekshirish) haqidagi nazariyani arxaizmlar tarjimasiga tadbiiq qilishning iloji yo'q. Chunki, arxaizmlarning tarjimasiga ham ichki, ham tashqi tarjimani o'z ichiga oluvchi murakkab jarayondir. Tarjimon, avvalo, arxaizmni tarixiy tildan zamonaviy tilga tarjima qiladi, undan keyin chet tiliga tarjima amalga oshiriladi. Ammo, mana shu birinchi bosqichda, ya'ni tarixiy tilda ifodalangan arxaizmning zamonaviy ekvivalentini topishda tarjimon aksariyat holatlarda xatoga yo'l qo'yadi, quyida arxaizmlarni noto'g'ri talqin qilishda eng ko'p uchraydigan muammolarga to'xtalib o'tamiz.

Birinchi bosqichda, ya'ni arxaizmni tarixiy asliyat tildan zamonaviy asliyat tiliga tarjima qilish jarayonida arxaizmlarning noto'g'ri semantik identifikatsiyasi ko'p uchraydi. Ba'zida asliyat matnida keltirilgan arxaizmning ma'nosi nomuvofiq talqin qilinishi, yoki izohlanishi natijasida tarjima mujmal bo'lib qoladi, bu esa o'quvchida kognitiv dissonans holatini keltirib chiqaradi. Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanidan olingan quyidagi misolga va uning O.M.Muminov va A.A.Xamidov tomonidan amalga oshirilgan tarjimasiga e'tibor qaratamiz:

Eshon bobom sizdan dilgir emishlar, — deydi bir kun Qurvonbibi so'figa.

Our Eshan got bored with you? -told once Kurbanbibi to her husband [12].

"Dilgir" arxaizmining asl ma'nosi "xafa bo'lmoq" bo'lib, tarjimonlar ushbu arxaizmning semantik identifikatsiyasini noto'g'ri talqin qilishgan, natijada Eshon bobo "xafa bo'lmagan", balki "zerikib qolgan" degan ma'no kelib chiqadi.

Shu o'rinda, arxaizmlarning noto'g'ri identifikatsiyasiga ta'sir qiluvchi bir qator lingvistik omillarni sanab o'tish joiz.

1. Tarixiy shakl va zamonaviy shakl omonimiyasi;
2. Arxaik grammatik shakllar;
3. Noto'g'ri talaffuzga ega o'zlashmalar;
4. Ekvivalentsiz leksika;
5. Ko'chma ma'nodagi arxaizmlar;
6. Arxaik disfemizmlar va evfemizmlar;
7. Arxaik frazeologik birliklar va hokazo.

Arxaizmlarni tarjima qilish masalasiga kelsak, A.V. Fedorov ma'lum bir tarixiy davrda yaratilgan asarlarni tarjima qilishning quyidagi turli stilistik yo'nalishlari va tamoyillari mavjudligini aytib o'tgan:

-birinchi usul arxaizatsiya (arxaiklashtirish), ya'ni tildagi arxaizatsiya vositalaridan foydalanish orqali matnni tarjima qilish hisoblanadi. Bunda tarjimon tarixiy koloritni saqlab qolish maqsadida, tarixiylik prinsipiga asoslanib matnni tarjima qiladi. Biroq bu usul har doim ham samarali bo'lavermaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimiz –tarixiy (mumtoz) asarlarni tarjima qilishda haddan tashqari ko'p tarixiy voqelikni saqlab qolish (transkripsiya qilish) asarning umumiy ohangidan og'ishiga, tasvirlanayotgan voqeaning mujmal bo'li qolishiga olib keladi. Zamonaviy yozuvchilar tomonidan yozilgan tarixiy asarlar tarjimasi esa, boshqa masala: bunda muallif matnga tarixiy voqelikni turli maqsadlarni amalga oshirish uchun ataylab kiritadi, bunday holda ularni neytral vositalar yordamida ifodalash, boshqacha qilib aytganda zamonaviylashtirish, tarixiy asarning koloritiga putur yetkazadi [11]. Bunda savol tug'ilishi tabiiy: "Ma'lum bir tarixiy davrda, masalan, XVIII asrda yaratilgan asarni ingliz tiliga tarjima qilganda, tarjimani aynan XVIII asrda amalda bo'lgan ingliz tilida aks ettirish kerakmi?". Albatta, buning iloji yo'q. Bunday tarjima o'quvchi uchun butunlay tushunarsiz bo'lishi aniq. Q.Musayev ta'biri bilan aytganda, "tarixiy asarlar ruhini tarjimada tiklash uzoq o'tmishda yaratilgan badiiy yodgorlikni boshdan oyoq o'sha davrga xos «til»da tasvirlab berish lozimligini bildirmaydi. Olti-etti yuz yil muqaddam bitilgan asarni nafaqat o'zga tillar vakillari, balki asliyat sohibi bo'lmish xalq vakillarining ham zo'rg'a tushinishi tabiiy xol. Davr xalq tiliga ham o'z muhrini bosadi. Demak, davr bo'yog'ini qayta yaratish maqsadida uzoq o'tmishda yaratilgan asarni shuncha yillar oldingi «til»da o'girish asarni hozirgi zamon kitobxonidan uzoqlashtirib qo'yadi. Lekin bu degani tarjima tilini butunlay zamonaviylashtirib tarjima qilish kerak degani ham emas, bu asarning tarixiy koloritini, milliy ruhini, tub ma'nosini yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

- ikkinchi usul modernizatsiya (zamonaviylashtirish), ya'ni matnga yoki uning alohida qismlariga zamonaviy rang berish. "Mumtoz asarlarni tarjima jarayonida zamonaviylashtirib yuborish asar qimmatining yo'qolib ketishiga olib keladi. Ularning o'tmish obidasi yekanligini anglatib turishi uchun nimadir kerak. O'sha narsa qadimiy so'z va iboralar bo'lib, tarjimada ulardan me'yorida foydalanish talab etiladi. Ayni paytda, muallif va qahramon nutqida o'sha zamonga mos kelmaydigan so'zlarni ishlatishdan yehtiyot bo'lish lozim. Nafaqat zamonaviy, balki hatto keying davrda paydo bo'lgan so'z va tushunchalarni qo'llash ham tarixiy haqiqatning buzilishiga sabab bo'ladi" [11].

- uchinchi usul neytralizatsiya (neytrallashtirish), ya'ni tarixiy rangning neytrallanishi, asl nusxaning o'zi yaratilgan davr tiliga mos kelishi bilan bog'liq xususiyatlarning kamayishi.

- to'rtinchi usul kombinatsion usul, ya'ni yuqoridagi u yoki bu tendentsiyalarning kombinatsiyasi.

Xulosa qilishimiz mumkinki, arxaizmlarni tarjima qilishda badiiy asarning janr xususiyatlari, arxaizmlarning funksional-semantik jihatlariga ahamiyat berish zarur.

Arxaizmlarning noto'g'ri identifikatsiyasiga ta'sir qiluvchi omillarni, xususan, tarixiy shakl va zamonaviy shakl omonimiyasi, arxaik grammatik shakllar, konvergent talaffuzga ega o'zlashmalar, ekvivalentsiz leksika (linguokulturemalar), ko'chma ma'nodagi arxaizmlar, arxaik disfemizmlar va evfemizmlar, arxaik frazeologik birliklarni tarjima jarayonida inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Arxaizmlarni tarjima qilishda arxaizatsiya, modernizatsiya, neytralizatsiya va kombinatsion usullardan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.M.O'rmonova. Tarjimada tarixiy-arxaik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi (o'zbek klassik adabiyotidan fransuz tiliga qilingan tarjimalar tahlili asosida), Fil.fan.nomzodi dissertatsiyasi, Toshkent, 2008.
2. Sh.I.Isakova. Badiiy tarjimada milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi (Oybekning "Navoiy" romanining fransuzcha tarjimasi misolida). Fil.fan.nomzodi dissertatsiyasi, Toshkent, 2004
3. B.B. Yarkinova. Turkiy tillardan tarjimada tarixiy koloritning aks ettirilishi (Qirg'iz adibi T. Qosimbekovning "Singan qilich" romani tarjimasi misolida). Fil.fan.nomzodi dissertatsiyasi, Toshkent, 2002.
4. Z.M. Bazarov. Badiiy tarjimada leksik-stilistik bo'yoqdorlikni saqlash muammolari (Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining inglizcha tarjimalari misolida). Fil.fan.falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Samarqand, 2020;
5. D.M.Xoshimova. "Boburnoma" matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari talqini. Fil.fan. doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Toshkent, 2018
6. Z.Q. Teshaboyeva. "Boburnoma"ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklar va ularning milliy-madaniy xususiyatlari. Fil.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Toshkent, 2017
7. Q.S. Abilovich. "Qutadg'u bilig" to'rtliklarining inglizcha badiiy tarjima xususiyatlari. Fil.fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Toshkent, 2010.
8. Jones, F. R., & Turner, A. (2004). Archaisation, Modernisation and Reference in the Translation of Older Texts / Jones Francis R, Turner Allan. Across Languages and Cultures 2004, 5(2), 159-185;
9. Влахов С.И., Флорин С. Непереваемое в переводе. М.2009;
10. E.Z. Ochilov. Ruboiy tarjimasida shakl va mazmun birligi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 1994.
11. А.В. Федоров. Основы общей теории перевода (Лингвистические проблемы). Сб, 2002. 398 стр
12. Chulpan. Night and day. Translated by: O.M.Muminov, A.A.Khamidov. Tashkent, 2014.
13. Najmiddinova, M. R., & Jalolova, S. M. (2021). CONTRASTIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK PUNCTUATION RULES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(06), 1-5.
14. BALANCES, O. S. W. O. C. ROOTABLE LAYER IN EXPERIMENTAL PRODUCTION SECTIONS. *Ozatboy Bazarovich Imamnazarov, Tokhirjon Olimjonovich Qosimov, Makhammadali Rustamjonovich Abdullaev ISSN, 2349-0721.*
15. IMAMNAZAROV, O. B., QOSIMOV, T. O., & ABDULLAEV, M. R. (2020). Balances Of Soil Waters Of Cotton Rootable Layer In Experimental Production Sections. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(05), 318-321.
16. Jalolova, S. M., Otakulov, N. B., Urmonova, N. M., & Nazarova, D. O. (2022). MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(4).
17. Odilov, B., & Karimov, N. (2022). COVERAGE OF ECONOMIC AND CULTURAL TRADITIONS IN THE YEARS OF INDEPENDENCE IN ETHNOLOGICAL RESEARCH (ON THE EXAMPLE OF THE FERGANA VALLEY). *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(3).
18. Имамназаров, О. Б. (1993). Регулирование мелиоративного режима при близком залегании слабоминерализованных грунтовых вод.

ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

19. АГЗАМОВА, Д. Б. (2018). COGNITIVE ANALYSIS OF METAPHORIC PHRASES OF THE CONCEPT "MEMORY" IN THE ENGLISH AND UZBEK BELLES-LETTRES TEXTS. *Иностранные языки в Узбекистане*, (2), 94-100.
20. Odilov, B., & Karimov, N. Archaeological Research is an Important Source in the Study of Traditional Economic Activities of the Uzbek People (On the Example of Some Researchers of the Twentieth Century).
21. Makhammadovna, M. F., & Agzamova, D. B. (2021). Psycholinguistic studies of pre-wedding and wedding traditions (on the basis of English and Uzbek phraseological units). *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).